

“Turonbank” ATBning korrupsiya faktlariga doir murojaatlarni ko‘rib chiqish natijalari haqidagi 2025-yillik umumiy HISOBOT

I. Umumiy ma’lumot

2025-yil yakunlari bo‘yicha “Turonbank” ATBga korrupsiya holatlariga doir jami **4 ta** murojaat kelib tushgan. Mazkur murojaatlar hududlar kesimida Toshkent shahridan **3 ta**, Jizzax shahridan **1 ta (anonim)** hamda Qarshi shahridan **1 tani** tashkil etadi.

Kelib tushgan murojaatlarning aloqa kanallari bo‘yicha tahliliga ko‘ra, **2 ta** murojaat bankning ishonch telefoni — **(71) 244-28-89** orqali, **1 ta** murojaat bankning **@turonbankantikor_bot** Telegram boti orqali hamda **1 ta** murojaat **e-anticor.uz** elektron aloqa kanallari orqali qabul qilingan.

Mazkur murojaatlar belgilangan tartibda ro‘yxatga olinib, ularni ko‘rib chiqish va o‘rganish jarayonlari amaldagi qonunchilik va bankning ichki me‘yoriy hujjatlariga muvofiq tashkil etilgan.

II. Ko‘rib chiqish natijalari

Mazkur hisobot davrida bankka kelib tushgan korrupsiyaga oid murojaatlar belgilangan tartibda har tomonlama va xolisona ko‘rib chiqildi. Murojaatlarda bayon etilgan holatlar yuzasidan manzilli profilaktik chora-tadbirlar amalga oshirilib, tegishli xizmat tekshiruvlari o‘tkazildi.

Xizmat tekshiruvlari jarayonida murojaatlarda keltirilgan faktlar chuqur o‘rganilib, mas’ul xodimlar bilan suhbatlar tashkil etildi, tushuntirish xatlari va suhbat bayonlari rasmiylashtirildi. Shuningdek, har bir murojaat bo‘yicha xizmat tekshiruvi natijalari yuzasidan asoslantirilgan xulosalar tayyorlanib, murojaatchilarga belgilangan muddatlarda rasmiy javob xatlari yuborildi hamda barcha tegishli hujjatlar qonunchilik talablariga muvofiq rasmiylashtirildi.

O‘tkazilgan xizmat tekshiruvlari natijalari Bank Odob-axloq komissiyasi yig‘ilishida muhokama qilinish, ularning yakunlari bo‘yicha zarur tashkiliy va profilaktik chora-tadbirlar belgilandi.

Yakuniy natijalarga ko‘ra, hisobot davrida kelib tushgan murojaatlar yuzasidan o‘tkazilgan xizmat tekshiruvlari davomida keltirilgan holatlarning hech biri **o‘z tasdig‘ini topmadi**.

III. Minimallashtirish choralari

Bank faoliyatida korrupsiya holatlarining oldini olish, xodimlar o‘rtasida halollik va shaffoflik tamoyillarini mustahkamlash, shuningdek kelib tushishi mumkin bo‘lgan murojaatlar sonini qisqartirish maqsadida 2025-yil davomida “Turonbank” ATB tomonidan tizimli ravishda profilaktik va tashkiliy chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Xususan, korrupsiya xavf-xatarlarini minimallashtirish maqsadida bankning markaziy apparati hamda hududiy bo‘linmalarida quyidagi yo‘nalishlarda ishlar olib borildi:

bank xodimlari uchun korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi amaldagi qonunchilik, ichki me‘yoriy hujjatlar va odob-axloq qoidalari bo‘yicha tushuntirish va profilaktik suhbatlar o‘tkazildi;

xodimlarning xizmat faoliyatida manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik masalalariga alohida e'tibor qaratilib, manfaatlar to'qnashuvini aniqlash va bartaraf etish mexanizmlari amaliyotga joriy etildi;

ish jarayonlarida inson omilini kamaytirish, shaffoflikni oshirish maqsadida ayrim xizmat va operatsiyalarni avtomatlashtirish hamda raqamlashtirish bo'yicha ishlar davom ettirildi;

bankda korrupsiyaga oid murojaatlarni qabul qilishning mavjud aloqa kanallari (ishonch telefoni, telegram-bot, elektron platformalar) faoliyati muntazam targ'ib qilinib, xodimlar va mijozlar o'rtasida ularning imkoniyatlari haqida axborot berildi;

murojaatlarni ko'rib chiqish jarayonida xolislik va maxfiylik tamoyillariga qat'iy rioya etilishi ta'minlandi;

korrupsiyaga qarshi ichki nazorat va komplayens tizimi doirasida korrupsiya xavfi yuqori bo'lgan jarayonlar tahlil qilinib, ularni kamaytirish bo'yicha aniq tavsiyalar ishlab chiqildi;

Bank Odob-axloq komissiyasi tomonidan xodimlarning xizmat intizomi va odob-axloq qoidalariga rioya etishi yuzasidan doimiy monitoring olib borildi.

Shuningdek, murojaatlarni o'rganish natijasida aniqlangan kamchiliklar va tizimli xatarlar asosida ichki me'yoriy hujjatlarni takomillashtirish, xodimlarning huquqiy ongini oshirish hamda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar belgilandi.

Yuqorida ko'rilgan choralar natijasida bank faoliyatida korrupsiya holatlarining oldini olish, shaffoflikni oshirish va jamoatchilik ishonchini mustahkamlashga xizmat qiluvchi samarali tizim shakllantirilgan bo'lib, mazkur yo'nalishdagi ishlar kelgusida ham izchil davom ettirilishi rejalashtirilgan.

Korrupsiyaga qarshi kurashish yo'nalishida amalga oshirilgan chora-tadbirlar haqida keng jamoatchilikka muntazam xabardor qilish uchun bankning rasmiy veb-saytida maxsus sahifa, elektron pochta, ishonch telefoni va telegram bot kanallari ishlab turibdi, jumladan:

anticorrupt@turonbank.uz — Elektron pochta;

turonbank.uz — Komplaens ofitserga murojaat;

[@turonbankantikor_bot](https://turonbank.uz) — Telegram boti;

Fuqarolardan korrupsiya holatlari bo'yicha ma'lumotlarni qabul qilish bo'yicha — **(71) 244 28 89** bank ishonch telefoni.

Shu bilan birga, yuqoridagi aloqa kanallari orqali fuqarolar, bank mijozlari va xodimlari korrupsiya, manfaatlar to'qnashuvi, ochiqlik va shaffoflik hamda boshqa korrupsion holatlar yuzasidan xabar berish uchun aloqa kanallari haqidagi ma'lumotlar Bankning barcha tarkibiy va hududiy bo'linmlarida joylashtirilgan. Bank veb-saytida korrupsiya faktlariga oid aloqa kanallari bo'yicha ma'lumotlar, hisobotlar, uslubiy va axborot materiallari doimiy ravishda joylashtirib borilmoqda.